



TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIYOTGA TA'SIRI.

Ilmiy rahbar: Toyirova Sarvinoz Atojevna

Nilufar Usmonova Hakimovna

@nilufaru337gmail.com

Buxoro davlat universiteti

Turizm (faoliyati yo'nalishlari bo'yicha).

3-3Tur-21-guruh.

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladi. Unda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi, ish o'rinlari yaratishdagi o'rni va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va ekologik turizmni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanishga erishish masalalari muhokama qilinadi. Turizm sohasini rivojlantirish uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlari: Turizmni rivojlantirish, iqtisodiyotga ta'siri, barqaror turizm, yalpi ichki mahsulot, xorijiy investitsiyalar, madaniy meros, ekologik ta'sir, turizm infratuzilmasi.

KIRISH:

Turizm zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi globalizatsiya davrida mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga, xalqaro aloqalarni kengaytirishga hamda madaniy va tarixiy merosni targ'ib qilishga turizm sohasining ta'siri beqiyosdir. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turizm qimmatli valyuta tushumlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va infratuzilmani yaxshilash imkonini beradi. Shu sababli, turizmni rivojlantirish ko'plab davlatlarning iqtisodiy strategiyalarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. O'zbekiston kabi boy tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarga ega bo'lgan davlatlar uchun turizm sohasini rivojlantirish katta iqtisodiy salohiyatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlari, tog' va cho'l landshaftlari, shuningdek, milliy an'analar va gastronomiyaning xilma-xilligi mamlakatni xalqaro turizm bozori uchun jozibador qiladi. Shu bilan birga, turizm nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki davlat imidjini oshirish va xalqaro miqyosda tan olinishiga ham yordam beradi. Turizmni rivojlantirishning iqtisodiyotga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda bu sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar batafsil yoritiladi. Turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shu orqali turizmning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini chuqurroq tahlil qilish maqsad qilingan.

Turizm zamonaviy iqtisodiyotning eng dinamik va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, balki xalqaro muloqotni mustahkamlashga, madaniyatlararo almashinuvni rag'batlantirishga va jamiyatlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishga katta hissa qo'shadi. Bugungi globallashuv davrida turizm sohasining ahamiyati ortib, u dunyo mamlakatlarining milliy daromadini shakllantirishda muhim manbalardan biriga aylanmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun turizm nafaqat iqtisodiy o'sishning drayveri, balki yangi infratuzilmani yaratish, mehnat bozorini rivojlantirish va qashshoqlikni qisqartirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston dunyoda turizm salohiyati yuqori davlatlardan biri sifatida alohida e'tiborga loyiq. Ming yillik tarixga ega qadimiy shaharlar, o'ziga xos madaniy meros, noyob tabiiy manzaralar va mehmondo'st xalqimiz mamlakatimizni xalqaro turizm xaritasida alohida o'rin egallashga undamoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular nafaqat milliy, balki global miqyosda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. Bu esa O'zbekistonni Markaziy Osiyoning turistik markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Turizmning iqtisodiyotga ta'siri ko'p qirrali va chuqur. Ushbu soha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumlarini oshirish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash kabi bir qator ijobiy omillarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, turizm nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida ham xizmat ko'rsatish sohasi hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan: - Faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarni tashkil etish; - Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan, u turizmni rivojlantirish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi va boshqalar. Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ish o'rinlarini yaralishi;





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- daromadni ko‘payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi;
- urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarining tezlashishi;
- mahalliy madaniyat o‘choqlarining yaralishi, xalq ijodiyoti, an‘analari, rusumlarini rivojlanishi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi;
- mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- tabiiy komplekslarning kengayishi;
- mintaqa jozibadorligini oshishi;
- mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;

Turizmni rivojlanishi iqtisodiyotimizga ta‘siri holatlarini tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda turizm sohasiga bo‘lgan e‘tibor oshganini va tashrif buyuruvchilar salmog‘i ko‘payganini ko‘zatishimiz mumkin, va yalpi ichki mahsulot hajmini oshishi va bo‘sh ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida o‘z o‘rnini egallayotganligidan dalolatdir. O‘zbekistonning 70% hududlarini cho‘l va adir mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs ro‘yhatga olingan. Bu resurslar 14 ta alohida – alohida mavzularda ekanligi bepayon cho‘l tabiati cho‘l hududlari xalqi hayoti, cho‘l hududlarining o‘simliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalanilsa turistlar oqimini yanada oshirish imkoniyati yuzaga keltirdi.

TADQIQOT NATIJALARI:

Milliy Kompaniyaning faoliyat yuritishi davomida Respublikamiz turizmida katta o‘zgartishlar amalga oshirildi. Oldinlari mehmonxonalar, dam olish uylari, turistik bazalar, kempinglar umuman zamonaviy talablarga javob bera olmas edi. Chunki ularni ta‘mirlash, qayta qurish va jihozlash masalalari sobiq Markaz tomonidan ko‘rib chiqilgan. Mustaqillikka erishilishi bilan bu holga, shuningdek, turizm sohasidan olingan daromadning barchasini respublika tashqarisiga olib chiqib ketilishiga chek qo‘yildi. O‘zbekiston turizm sohasida bozor munosabatlari amal qila boshladi, davlatning ko‘plab turistik korxonalari xususiylashtirildi, turistik korxonalarga bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda turistik mahsulot yaratish, hamda shu turistik mahsulotga mustaqil narx belgilash erkinligi yaratib berildi. Natijada turistik bozorda korxonalar orasida raqobat yuzaga keldi. Raqobat O‘zbekiston turistik korxonalarining o‘z faoliyatini yanada rivojlantirish uchun yanada sifatli mahsulot ishlab chiqarish va bu bilan umumiy rivojlanishni ta‘minlashga undadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda turizm sohasining iqtisodiyotga ijobiy ta‘sirini ochib beradi. Birinchidan, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o‘sayotgan bo‘lib, bu sohaning mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. 2023-yilda 5,2 million xorijiy turistning tashrifi milliy



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

turizm sektorining jozibadorligini ko'rsatib, xizmatlar eksportidan valyuta tushumlarini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi.

Turizm sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi xizmat ko'rsatish, mehmonxona va transport infratuzilmasining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Mehmonxonalar sonining ko'payishi va transport infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratdi. Xususan, tezyurar poyezdlar, xalqaro aeroportlarning modernizatsiya qilinishi va mehmonxonalar tarmog'ining kengayishi xorijiy turistlar oqimini oshirdi. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va strategik geografik joylashuvi bu sohani milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosining 20%ga o'sishi turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini tasdiqlaydi. Xorijiy turistlarning o'rtacha 600-800 AQSh dollari miqdorida xarajat qilishi turizmni daromadli soha sifatida belgilaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasidagi o'sish O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashiga, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va investitsiya dasturlari natijalari bu sohani iqtisodiyotning barqaror o'sish manbaiga aylantirish imkonini bermoqda.

Quyidagi jadvalni biz misol tariqasida bemalo ayta olamiz.

1. YAIMdagi ulushi	O'zbekistonda turizmning yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. 2022-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, turizmning YAIMdagi ulushi qariyb 3%ni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2023-yilda yanada oshishi prognoz qilingan.
2.Xorijiy investitsiyalar	2019-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" doirasida soha uchun chet el investitsiyalari jalb qilindi. Ayniqsa, mehmonxona qurilishi va infratuzilma modernizatsiyasida katta sarmoyalar kiritilgan.
3.Ish o'rinlarini yaratish:	Turizm sohasi xizmat ko'rsatish, mehmonxona, transport va savdo sohalarida ish o'rinlarini yaratishda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. 2022-yilda soha orqali 260 mingdan ortiq yangi ish o'rnini yaratilgan.
4.Sayyohlar oqimining ko'payishi:	2023-yilda O'zbekistonga 5,2 million xorijiy turist tashrif buyurgan, bu 2019-yilga nisbatan 40% ga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

	ko'proqdir. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida vizasiz rejim joriy etilgan mamlakatlar sonining oshishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi ko'rsatilmoqda.
5.Xorijiy turistlarning xarajatlari:	Har bir xorijiy turist O'zbekistonda o'rtacha 600-800 AQSh dollari sarflamoqda. Bu mehmonxona xizmatlari, restoranlar, transport va suvenirlar savdosi orqali milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad olib kelmoqda.
6. Valyuta tushumlari:	Har bir xorijiy turist O'zbekistonda o'rtacha 600-800 AQSh dollari sarflamoqda. Bu mehmonxona xizmatlari, restoranlar, transport va suvenirlar savdosi orqali milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad olib kelmoqda.
7. Mehmonxona va joylashtirish xizmatlari:	Hozirgi vaqtda mamlakatda 1 600 dan ortiq mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkich 2016-yildan boshlab ikki barobarga oshdi. Shuningdek, kichik oilaviy mehmonxonalar va eko-turizm inshootlari soni ham sezilarli darajada ortgan.
8. Transport tizimi:	Samarqand, Buxoro va Toshkentda xalqaro aeroportlar modernizatsiya qilinib, yiliga millionlab sayyohlarni qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, "Afrosiyob" tezyurar poyezdlarining faoliyati xorijiy va mahalliy sayyohlarning qulay harakatlanishini ta'minlamoqda

XULOSA:

O'zbekistonning turizm sohasidagi yutuqlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Turizmning YAIMdagi ulushining o'sishi, xorijiy turistlar oqimining ortishi va valyuta tushumlarining ko'payishi ushbu sohaning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilmaning rivojlanishi va mahalliy tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini yanada kuchaytirmoqda. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish, yangi investitsiya imkoniyatlarini ochish va xalqaro turizm maydonida o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida izchil qadamlar tashlamoqda. Shu boisdan, turizmni diversifikatsiya qilish, ekologik va ichki turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va global tajribalarni tatbiq etish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish zarur.

Shuningdek, transport tizimi va mehmonxona tarmog'ining modernizatsiya qilinishi, shaharlar va tarixiy obidalarni zamonaviylashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

chora-tadbirlar xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiyotning o'sishiga, balki milliy madaniyat va tarixiy merosning xalqaro miqyosda tan olinishi va targ'ib qilinishiga xizmat qilmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Mamlakatning boy madaniy merosi, qadimiy shaharlar, tabiiy resurslar va mehmondo'stlik an'analari O'zbekistonni jahon turizm xaritasida o'ziga xos joy egallash imkoniyatiga ega qilib qo'yadi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning turli jabhalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda:

Yalpi ichki mahsulotni oshirish;

Yangi ish o'rinlarini yaratish;

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

Mahalliy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, turizm nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki madaniy merosni asrab-avaylash va global maydonda milliy imidjni mustahkamlash uchun ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan strategiyalar va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakat turizmini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq, turizm sohasining to'laqonli rivojlanishi uchun infratuzilmani yanada yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ekologik turizm imkoniyatlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, xalqaro tajribalardan samarali foydalanish va ichki turizmni rivojlantirish orqali turizmni iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim sohalardan biriga aylantirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish va milliy madaniy merosni dunyoga tanitishda ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 16-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни. Т.: Норма. 2016 йил. 13 апрел.
4. Tulkinovna, R. M. (2024). QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM OQIMINI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(1), 130-135.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

5. Eshtaev A.A., Norchaev A.N., Ruziev S.S. O'zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo'llari. T.: TDIU, 2007.
6. Ruziyeva, M. (2023). OZBEKISTONNING EKOTURIZM RESURSLARI: KAMCHILIK VA ISTIQBOLLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 32(32).
7. Manba: "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Samarqand-2014
8. Ruziyeva, M. (2023). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 36(36).
9. Ruziyeva, M. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MICE TURIZMINING MINTAQAVIY RIVOJLANISHI VA TUTGAN ORNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 36(36).
10. Эргашева, А. (2021). GLOBALLASHUVNING HUNARMANDCHILIK ISTIQBOLIGA TA'SIRI. *Центр научных публикаций* (buxdu. uz), 8(8).
11. Farmonovna, E. A. (2023). Prospectuses for the Development of National Handicrafts in Uzbekistan.
12. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 35(35).
13. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 35(35).
14. www.stat.uz ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.
15. www.moluch.ru.
16. www.lex.uz

